

**MUQOBILSIZ LEKSIKA: IBORALAR  
TARJIMASINING AYRIM MUAMMOLARI  
(A.QAHHOR HIKOYALARINING KOREYS  
TILIGA TARJIMASI MISOLIDA)**

*To‘raqulova Dilrabo Chori qizi, Samarqand davlat chet tillari  
instituti tayanch doktoranti*



<https://orcid.org/0841-0019-1017-2006>

e-mail:

[dilrabortoaraqulova@gmail.com](mailto:dilrabortoaraqulova@gmail.com)

**UNRIVALLED LEXICAN: SOME PROBLEMS OF  
TRANSLATION OF PHRASES (ON THE  
EXAMPLE OF TRANSLATION OF  
A.QAHKHOR’S STORIES INTO KOREAN)**

*Turakulova Dilrabo Chori kizi, a doctoral student at the  
Samarkand State Institute of Foreign Languages*

**ЛЕКСИКОН БЕЗ АЛЬТЕРНАТИВ:  
НЕКОТОРЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ФРАЗ  
(НА ПРИМЕРЕ ПЕРЕВОДА РАССКАЗОВ  
А.КАХХОРА НА КОРЕЙСКИЙ ЯЗЫК)**

*Туракулова Дилрабо Чори кызы, базовый докторант  
Самаркандского государственного института  
иностранных языков*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada iboralar bilan bog‘liq birliklarni o‘zbek tilidan koreys tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar va ularni hal qilish usullari o‘rganiladi. Tarjima jarayonida iboralarning mazmunini to‘g‘ri ifodalash hamda tarjimada hissiy va madaniy o‘zgarishlarni hisobga olish muhim o‘rin tutadi. A.Qahhor qalamiga mansub hikoyalarning koreys tiliga tarjimalarida iboralarning tarjimada qanday o‘zgarishi va koreys madaniyati uchun qay tarzda moslashtirilgani tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** ibora, muqobil tarjima, so‘zma-so‘z tarjima, madaniyat, madaniy farq, tarjima, ekvivalent, o‘zbek tili, koreys tili.

**Abstract:** This article examines the problems that arise when translating idiomatic units from Uzbek into Korean and how to solve them. In the translation process, it is important to correctly express the meaning of the idioms and take into account emotional and cultural changes in the translation. It analyzes how idioms change in translation and how they are adapted for Korean culture in the translations of stories written by A. Qahhor.

**Key words:** phrase, alternative translation, word-for-word translation, culture, cultural difference, translation, equivalent, Uzbek language, Korean language.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются проблемы, возникающие при переводе идиоматических единиц с узбекского языка на корейский, и пути их решения. В процессе перевода важно правильно выразить содержание фраз и учитывать эмоциональные и культурные изменения в переводе. В переводах рассказов А.Каххора на корейский язык анализируется, как изменяются фразы в переводе и как они адаптируются к корейской культуре.

**Ключевые слова:** фраза, альтернативный перевод, дословный перевод, культура, культурная разница, перевод, эквивалент, узбекский язык, корейский язык.

**KIRISH.** Iboralar bilan bog‘liq birliklar har bir tilda o‘ziga xos bo‘lib, ularni tarjima qilish jarayonida muammolarga duch kelish mumkin. Iboralar bilan bog‘liq birliklar odatda bir tildan ikkinchi tilga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinmaydi. Balki ular turli madaniy, lingvistik va kontekstual farqlarga qarab moslashtiriladi. Frazeologik birliklarni tarjimada to‘g‘ri qo‘llash natijasida muammosiz yo‘qolishi yoki noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin. Shu sababli frazeologik birliklarni to‘g‘ri tarjima qilish badiiy asarlarning muvaffaqiyatli tarjimasi uchun muhim o‘rin tutadi[1]. Iboralar bilan bog‘liq bo‘lgan birliklar ham milliy xos so‘zlar, maqollar, ertaklar kabi har bir millatning milliy manzarasini o‘zida aks ettiradi. Shuning uchun ham iboralar tarjimon oldida, tarjima qilinishi mushkul birliklar majmuasining bir qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Iboralar tarjimasi murakkabliklarining turli xil yechimlari borasida ko‘plab olimlar, jumladan, V.Vinogradov, A.V.Fedorov, Ya.I.Retsger S.Vlaxov, F.Lorin, G‘.Salomov, Sh.Rahmatullayeva, Sh.Rahimova, R.Fayzullayeva, A.Mamatov kabi bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan bo‘lsalar-da[2], hanuzgacha iboralar tarjimasi muammosining “ochilmagan qirralari” va tadqiq qilinmagan jihatlari ko‘p.

Har bir xalqning tilida frazeologik zahirasi borki uning tarkibida xalq hayotiga xos bo‘lgan voqea-hodisalar, diniy tushunchalar, milliy an‘ana va urf-odatlar, xalqning ruhiy holatlari aks etgan bo‘ladi. Bir tilga mansub bo‘lgan bunday iboralar milliy xususiyatli til vositalari tarkibiga kiradi. Ular tilning xalqchilligi va o‘ziga xosligini ifodalab badiiy asarning milliy bo‘yoqdorligini oshiradi.

O‘zbek tilshunosligi va tarjimashunosligida iboralarni tarjima qilishda ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo‘lib, ularda tarjima usullarining o‘ziga xos tizimi yaratilgan. Koreys tilida iboralar 관용어 yoki 문구 deb yuritiladi. Koreys tilshunosligida iboralar tadqiqiga bag‘ishlangan qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Bu o‘rinda Koreys tadqiqotchilaridan 죄유나 (한국어 관용어 교육 방안 연구), 이양금 (대조를 통한 한국어 관용어 교육 연구: 영어권 학습자를 대상으로), 이동규 (중·고급 학습자를 위한 한국어 문화 어휘 교육: 속담관용어 교육을 중심으로), 유서상 (중국인 고급 학습자를 위한 한국어 관용어 교육 방안 연구: 신체 관용어를

중심으로 [3] kabilarning tadqiqot ishlari yaqqol misol bo‘la oladi.

O‘zbek tarjimashunos olimlaridan E.Ochilov hamda N.Xodjayevalarning fikricha “Maqol, matal, va idiomalar tarjimasida uch prinsip hukm suradi:

1) asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish;

2) asar o‘girilayotgan tildan monand muqobil variant topib qo‘yish;

3) frazeologizmni aynan, so‘zma-so‘z tarjima qilish[4].

Rus olimlardan biri A.V.Fedorov shunday deydi: badiiy asar tarjimasida uchrab turadigan iboralar tarjimasida quyidagi uch tamoyilga asoslangan holda tarjima qilish lozim[5] ya‘ni:

-to‘liq mos kelish (adekvatlik);

-qisman mos kelish (muvofiqlik);

-mos kelmaslik (yoki nomuvofiqlik).

Shu bilan birga, tarjimashunos olimlar iboralar tarjimasida so‘zma-so‘z tarjima, muqobil tarjima va izohli tarjima usullaridan foydalanish eng ma‘qul usullardan ekanligini ta‘kidlashadi. Bugungi kunda o‘zbek adabiyoti durdonalarining xorijiy tillarga tarjimalarini amalga oshirish bir qancha to‘siqlarni yengib o‘tishni talab etadi. O‘zbek madaniyatida shunday so‘z va iboralar mavjudki, ularni koreys tiliga tarjima qilish katta ma‘suliyatni talab etadi. Nafaqat so‘z va iboralar, balki, bu ikki mamlakatning milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini, marosimlarining o‘zi ham tubdan farq qiladi. Bir tildan ikkinchi bir tilga badiiy tarjima amalga oshirilar ekan, unda nafaqat asarning ma‘no-mazmuni, balki, tarjima qilinayotgan asar tiliga mansub bo‘lgan millatning madaniyati, yashash tarzi, tarixi, dunyoqarashi ham keng targ‘ib qilinadi. Shunday ekan, tarjimon tarjima qilayotgan asarning milliy o‘ziga xosligini saqlagan holda tarjimani amalga oshirishi muhim masalalardan biridir. Tarjimon asar tarjimasi jarayonida uchratgan iboralarining tub mohiyati hamda ularning qanday ma‘noda va qanday vaziyatlarda ishlatilishini chuqur bilishi lozim. Mabodo tarjimon asliyat matnda berilgan iboralarni noto‘g‘ri yoki noo‘rin qo‘llasa, tarjimaning emotsionalligi va milliyligining nursizlanishiga olib keladi. Natijada kitobxon ongida asardagi milliylik tasavvurining xiralashuvi va qoniqmaslik kabi holatlar yuzaga keladi.

O'zbek tarjimashunosligida iboralar tarjimasida ekvivalent, muqobil, tasviriy va kalka usullarida tarjima qilish mumkinligi ko'rsatilgan.

Fikrimizni asoslash maqsadida quyida tahliliy misollarga murojaat qilamiz. Navbatdagi misol A.Qahhor qalamiga mansub "Boshsiz odam" hikoyasidan olingan.

**Asliyatda:** Niso buvi eri o'lib, ikkita yosh qizi bilan qoldi. Ikki-uch kishi sovchi qo'yganda, u ikki bola bilan tinch turmush qila olishini **ko'z oldiga keltira olmay**, rozilik bermagan edi[7]. (A.Qahhor. "Boshsiz odam").

**Tarjimasi:** Niso 아주머니는 남편이 죽은 후 두 딸과 함께 살고 있었다. 남편이 죽은 뒤 한 두 사람이 Niso 아주머니와 결혼하기 위해 중매쟁이를 보내기도 했다. 그러나 Niso 아주머니는 두 딸 때문에 결혼하지 않았다[7].

Ushbu tarjimada tarjimon ko'z oldiga keltira olmaslik iborasini koreys tiliga tarjima qilmagan. Biroq koreys tilida ham bu iboraga aynan mos keladigan iboralar mavjud. Bular: *꿈도 못 꾸다* orzu ham qila olmaslik, *전혀 예상하지 못하다* mutlaqo kutilmagan, *도저히 생각할 수 없다* o'ylay olmaslik, *미처 생각지도 못하다*, xayoliga keltirmaslik *거늬조차 못하다*, hatto taxmin ham qila olmaslik, *kabilardir*. Bular orasida *거늬조차 못하다* iborasi aynan mos keladi.

**Asliyatda:** Bu to'g'rida ba'zilar: "Niso buvi ilgariyam usta Abdurahmon bilan **don olishib yurar ekan...**" degan gapni qilishdi, ba'zilar: "Bechora nima qilsin, ikkita bolasi bor, usta Abdurahmonning ham o'lgan xotinidan bitta o'g'li bor, vaqti kelganda **tili qisiq** bo'lmaydigan ish qilibdi-da..." deyishdi[7].

**Tarjimasi:** 어떤 사람들은 그 결혼에 대해 두 사람이 전부터 서로 **사랑하는** 사이였다고 말하기도 했지만, 사실은 압둘라흐몬이 보낸 중매쟁이가 한 말 때문이었다.

Asliyatga mos bo'lgan tarjimaga erishish, asliyatning mazmuni va shaklini to'liq saqlash va realiyalar tarjimasida muqobilini aynan topib bera bilishdadir. Zero, tarjimon asarni o'zicha tarjima qilish, asardan nimanidir olib tashlash, biror narsani o'zgartirish va boshqa millatga tegishli bo'lgan so'zlarni tarjima tiliga olib kirish badiiy tarjima qonuniyatlarining buzilishiga olib keladi. Yuqoridagi misolda ham tarjimon tomonidan qisqartirish va tushirib qoldirish bilan amalga

oshirilgan tarjimaning guvohi bo'lamiz. Vaholanki, Koreys tilida ham yuqoridagi jumlada mavjud bo'lgan "don olishib yurmoq" iborasi o'rnida "배부기기" yoki "배부도주" (xiyonat qilmoq) iboralari, muqobili mavjud bo'lib tarjimon ushbu so'zlarga muqobil sifatida shu so'zlarni qo'llash bilan so'z va ma'no uyg'unligiga erishish mumkin bo'lar edi, degan fikrdamiz.

**Asliyatda:** Niso buvi **pichoq borib suyakka tekkandan** keyin qizlarini internatga berishni ham o'yladi[7].

**Tarjimasi:** 남편과의 불화가 심해져서 Niso 아주머니는 **칼이 뼈속까지 파고든 것 같은 고통을 참으며** 살아가고 있었다[7].

O'zbek tilida sabri tugaganligini ifoda qilish maqsadida "pichoq borib suyakka tegdi", "sabr kosasi to'ldi" kabi iboralar qo'llaniladi. Yuqorida sanab o'tilgan mazmunni koreys tilida ifodalash uchun jumlada keltirilgan "pichoq borib suyakka tegdi" iborasi o'rnida *불신평발* (sabrims portladi) mazmunidagi iborani qo'llash mumkin edi. Lekin tarjimon ushbu iborani, so'zma-so'z tarjima qilgan.

Birinchidan, ushbu tarjima kitobxon uchun tushunarsiz tarjima hisoblanib, iboralar tarjimasida, kalkalash ya'ni so'zma so'z tarjimaga ba'zan yo'l qo'yiladigan usul hisoblansa-da, lekin eng besamar usullardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, tarjimonidan iboralar tarjimasida sinchkovlik talab etiladi. Ikkinchidan, jumlaning mazmun-mohiyatiga ham yetarlicha putur yetganining guvohi bo'ldik. Bir-biriga muqobil bo'lgan iboralar bemalol bir-birini to'ldira oladi. Muqobil iboralar tarkibida ularning o'zaro ma'no anglatishiga to'sqinlik qiladigan milliy xususiyatli so'zlar uchramaydi. Ammo tarjimonlar bazida o'z tillarida mavjud bo'lgan imkoniyatlardan unumli foydalana olishmaydi, ifodaning noadekvat talqiniga yo'l qo'yadilar. Iboralar so'zma-so'z tarjima qilinsa, ularning ma'nosi anglashilmaydi. Tarjimashunos olim G'.Salomov ham "Juda ko'p frazeologizmlar borki, ular hijjalab tarjima qilinsa, bema'ni so'z uyumlari hosil bo'ladi, xolos"[6] deb ta'kidlaganlari ham bejiz emas.

**Asliyat:** "Chorshanba kuni to'y", dedi-yu chiqib ketdi. Niso buvi **rang-quti o'chib**, devorga suyanganicha qolabardi[7].

**Tarjimasi:** 어느 날 아침 밥을 먹은 후 압둘라흐몬은 오는 수요일에 둘을 결혼시키겠다고 말하고 밖으로 나가 버렸다.



니소 아주머니는 그 말을 들은 후에 **안색이 창백해지고 맥이 풀려 벽에 기댄 채 멍하게 서 있을 뿐이었다**[7].

O'zbek tilida biror narsadan qattiq tashvishlanganda yoki qattiq qo'rqib ketgan holatlarda "rangi bo'zdek oqarib ketdi", "rangi devordek oqardi", "rangida rang qolmadi", "rangi dokadek oqardi" kabi iboralar qo'llaniladi. Tarjimon ushbu iboraning mohiyatini, matn ma'nosini chuqur anglagani yuqoridagi misol tartjimasida yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu tarjimada mutarjim o'zbek tilidagi iborani so'z qurilish va mazmun jihatidan juda o'rinli foydalab koreys tiliga **안색이 창백해지고** deb tarjima qilgan va natijada bu iboraning mazmuniga putur yetmagan.

Asliyatga mos bo'lgan tarjimaga erishish, asliyatning mazmuni va shaklini to'liq saqlash va realiyalar tarjimasida muqobilini aynan topib bera bilishdadir. Zero, tarjimon asarni o'zicha tarjima qilish, asardan nimanidir olib tashlash, biror narsani o'zgartirish va boshqa millatga tegishli bo'lgan so'zlarni tarjima tiliga olib kirish badiiy tarjima qonuniyatlarining buzilishiga olib keladi.

**Asliyat:** To'y o'tdi. Endigi Niso buvining qayg'usi Mehrining **bo'yida bo'lib qolishi**, Chunki, Faxriddindan uning bo'yida bo'lishini xohlamas edi[7].

**Tarjimas:** 두 사람은 결혼했다. 니소 아주머니는 딸이 파흐르든의 자식을 갖는 것이 싫었기 때문에 사위에게 자식에 대해 말했다[7].

Yuqoridagi misolda "bo'yida bo'lib qolmoq" ya'ni "homilador bo'lmoq" ma'nosini beruvchi ibora koreys tilida uchramaydi. Shu sababdan tarjimon bu iborani homilador bo'lmoq so'zi bilan tarjima qilgan va mazmunni saqlab qolishga harakat qilgan.

**Asliyat:** Niso buvi talvasaga tushib, **o'zini qayoqqa urishni bilmas** edi[7].

**Tarjimas:** 메흐르의 모습을 볼 때마다 니소 아주머니는 머릿속이 하얘지곤 했다[7].

Navbatdagi misolga e'tiborimizni qaratsak, "o'zini qayoqqa urishni bilmaslik", "nima qilarini bilmaslik" ma'nolarida qo'llaniladigan ibora

hisoblanib, tarjimon bu iborani 머릿속이 하얘지다 "to'satdan xayoliga hech qanday fikr kelmaslik, nima qilarini bilmay qolish" ma'nolarini yoritishda foydalaniladigan ushbu iborani qo'llash bilan tarjimon o'zbek tilidagi iboraning mazmunini yoritib bera olgan.

**XULOSA.** Hikoyalar tarjimasida qo'llanilgan iboralar tarjima jarayonida asosan muqobil iboralar vositasida berilgan. Tadqiqot jarayonida iboralar tarjimasining kalka va tasviriy usullari uchramadi. Asliyatda qo'llanilgan iboralarga ekvivalent iboralar topilmagan taqdirda, ko'p hollarda ular muqobil iboralar yordamida tarjima qilingan. Tarjimalarda koreys tilining boy iboralar zahirasidan mahorat bilan foydalanilgan. Mutarjim tarjima qilish jarayonida iboralarga muqobil variant topilmagan taqdirda oddiy so'z bilan tarjima qilgan vaziyatlar ham uchraydi. Iboralar tarjimasida mazmuniy xususiyatlardan tashqari, muallif nazarda tutgan uslubiy maqsad ham qayta yaratilgan.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Маматов А.Э. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг шаклланиши масалалари. - Т.:УТА.
2. Власов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. - М., 1980; Саломов Ф. Рус тилидан мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. -Т.: Фан, 1961; Файзуллаева Р. Национальный колорит и художественный перевод. - Т., 1979; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. - Т., 2000; Раҳимова Ш.П., Инглиз тили идиоматик ибораларини ўзбек тилига ўтиришнинг лисоний хусусиятлари. – Т., 2019.
3. Scienceon.kisti.kr.
4. E.Ochilov, N. Xodjayeva, Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent-2022.
5. Федоров А.В. Введение в теорию перевода. - М., 1958.
6. Саломов Ф. Тил ва таржима. -Тошкент: Фан, - Б 262.
7. U.Saydazimova. Abdulla Qahhor hikoyalari. – Toshkent: Istiqlol, 2015.